



SIROJIDDIN SAYYID SHE'RLARIDA ANAFORA VA EPIFORANING QO'LLANISHI

Jumaboyev Shohruh G'ayratjon o'g'li
Renessans ta'lim universiteti talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17933477>

Annotatsiya. Ushbu maqolada S.Sayyid sherlaridagi takrorning qo'llanilishi tahlil qilingan, takror qo'llanilgan misralarning ahamiyati va qanday yasalganligi ko'rsatib o'tilgan, shuningdek, takrorlar tufayli yuzaga kelgan sheriy joziba ochib berilgan.

Kalit so'zlar: takror, anafora, epifora, ta'kid, emotsionallik, uslubiy ma'no, darajalanish.

Abstract. This article incorporates public domain information from the. The use of the repeat in Sayyid Lions has been analyzed, showing the importance and how the repeated verses were made, as well as revealing the sherry charm caused by the repetitions.

Keywords: repetition, anaphora, Epiphora, interpretation, emotionality, methodological meaning, grading.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida takrorlarning qo'llanishi faol bo'lib, shoir vatan madhini keltirgan o'rinlarda takrorlarga ko'p murojaat qiladi, shoir takromi o'zgarishlar bilan qo'llar ekan, bu albatta, she'riy vazn talablariga moslashtirish, intonatsion butunlikni saqlash, ma'noni ta'kidlash, she'rning shakl jihatdan tuzilishiga yangicha ko'rinish kiritish maqsadi bilan bog'liq bo'ladi. Quyida ana shunday o'zgarishlarga uchragan takrorlarni tahlil qilamiz.

Har qarichi, har g'ubori imlo, yurtim,

Har bir toshi, har chinori mullo, yurtim.

Keltirilgan misol "Ustodi avval" she'ridan keltirilgan bo'lib, shoir uchun Vatan birinchi ustoz sifatida sifatlangan **har** so'zining 2 misrada to'rt bora takrori Vatanni sevishni ta'kidlab ko'rsatgan. Bu usul anafora sanalib, "(yun. anaphora – yuqoriga chiqarish). Parallel tuzilgan nutq parchalari (mas., misralar) boshida aynan bir unurning takrorlanishidan iborat uslubiy qo'llanish" sanaladi [1,14].

Vatan. Vatan. Vatan. Vatan.

Nadur manga durri Adan?

Keltirilgan she'riy parchada Vatan so'zi kontakt holatda 4 marta takrorlanib, natijada takror tufayli darajalanish yuzaga kelgan.

Anaforada qanday birlik takrorlanishidan qat'i nazar, misralar boshida yoki har bir gaplar boshida bir til birligining takror kelishidir. Band doirasidagi anaforalarda bandning turli misralari boshida takrorlar mavjud bo'lsa, she'rning turli qismlarida qaytarilgan birliklar she'r miqyosidagi anaforani hosil qilgan. "Anafora misrada qayd etilgan fikrning eng keskin, ta'kidlangan nuqtasini ifoda etar ekan, u



albatta, mantiqiy urg‘u bilan bog‘liq bo‘ladi. Mantiqiy urg‘u gapning yangiligi (yoki yangilik o‘rami)da aks etadi” [2,22].

S.Sayyid “Hayot qo‘shig‘i” she‘rida dastlabki uch bandning har birining dastlabki ikki misrasini anafora bilan beradi, masalan:

1-band:

Kimlar alvon kiydilar,

Kimlar armon kiydilar.

2-band:

Kimlar gul deb suydilar,

Kimlar tushga yo‘ydilar.

3-band:

Kimlar yonmay kuydilar,

Kimlar qonmay to‘ydilar.

Kimlar so‘zi jamlash, umumlashtirish ma‘nosida kelib, har bir takrorda, ya‘ni takrordan takrorga *kimlar* so‘zining ma‘nosi ta‘kidlanib, misralarning ta‘sirchanligi ortib borgan.

Sizing sha‘ningizga o‘qilsin deyman,

Sizing yelkangizga to‘kilsin deyman.

Siz olmoshi takrori ko‘plik ma‘nosi bilan birga hurmatni ham ta‘kidlagan. - ning qo‘shimchasi takror so‘zga qo‘shilib o‘ziga xoslikni ta‘minlagan, vatan posbonlariga atab yozilgan ushbu she‘rda anafora ta‘sirchanlikni oshirib, jamlash, umumlashtirish ma‘nolarini ifodalagan.

Shoirning she‘rlari qalb qo‘ridan yaralgan. Ularning har biri – shoir hayotining ma‘lum bir bo‘lagi. S.Sayyid ularga ichki tug‘yonini singdirgan. Jumladan, she‘rlarida *Vatan* so‘zi ishtirokidagi takrorlar epifora ko‘rinishida ham ko‘p qo‘llangan. Ma‘lumki, epifora “ (gr. yepi – so‘ng, phoros – olib boruvchi) so‘zlaridan olingan [3,253] bo‘lib, “takrorning bir turi..., tovushlar tugallanishi ham deb yuritiladi” [4,51]. Shoir “marsiya” she‘rida shunday keltiradi:

Ey bulbullarga Kuy-g‘azal, Vatan.

Sen — abad Vatan,

Sen — azal Vatan.

Kim sendan yuldi,

Kim — o‘sal, Vatan.

Gul, asal Vatan,

Sen yuksal, Vatan,

Sen yuksal, Vatan,

O‘yladi bolang, Kuyladi bolang,



Ey, go'zal Vatan!

Ey, go'zal Vatan

Epifora qat'iy tizimli takror bo'lib, misrada kelish o'rniga ko'ra anaforaga ziddir. Chunki anafora misra boshidagi takror bo'lsa, epifora – misra oxiridagi takroridir. Shuningdek, anaforada misralar boshida ohangning ko'tarilishi kuzatilsa, epiforada misralar oxiriga urg'u beriladi yoki ohangning ko'tarilishi yuzaga keladi. Natijada epiforada misra oxiriga tomon ohangning ko'tarilishi yuzaga kelib, mantiqiy urg'u ham shu takrorlanuvchi birlikka tushadi.

“Ikki yulduz” to'rtligida epiforaning betakror namunasini qo'llanib, ta'kid mazmuni kuchaytirilgan:

*Bu oqshom meningdir, bu ayyom **mening**,*

*Bu soqiy meningdir, bu Xayyom **mening**.*

*Ko'kdan jilva qilsa Surayyom **mening**,*

*Yerda ishva aylar Muhayyom **mening**.*

Epifora takrorning boshqa turlari singari hozirgi zamon o'zbek she'riyatida keng qo'llanmoqda. S.Sayyid she'riyatida epifora turlicha uslubiy ma'no ifodalab, she'riy misralarning o'ziga xos jozibasini ta'minlagan. Shoirning 4 misrali she'riyning dastlabki uch misrasida qaytdi so'zi epifora shaklida takror qo'llanadi:

Teskariga oqqan daryolar **qaytdi**,

Tog'larda yo'qolgan sadolar **qaytdi**.

Meni izlab ketgan nidolar **qaytdi**,

Bolalik qaytmadi. Qaytmadi

Demak, so'z takrori sanaluvchi anafora va epifora she'riyatimizda, shu jumladan, S.Sayyid she'rlarida keng tarqalgan usullardan biri bo'lib, u she'rda ta'kid, nadomat, o'tinch, ishonch, sog'inch ma'nolarini kuchaytirish, darajalash, bo'rttirish, tasvirni yanada teranlashtirish, qiyoslash kabi turli vazifalarni ado etish uchun qo'llanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zME, 2002.
2. Rixsiev G. She'riyatdagi gaplarning aktual bo'linishida anaforalar o'rni: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – T., 1999.
3. Homidiy H., Abdullaeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1967.
4. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: O'qituvchi, 1995.